



BUXORO VILOYATINING DEMOGRAFIK HOLATI

(Dastlabki ma'lumotlar)


Buxoro viloyatining doimiy aholisi soni 2021-yil 1-iyul holatiga ko'ra **1 958,5 ming kishini** tashkil etib, yil boshidan **11,4** ming kishiga yoki **0,6 %** ga ko'paydi. Jumladan, shahar aholisi soni **719,2** ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi **36,7 %**), qishloq aholisi soni **1239,2** ming kishi (**63,3 %**)ni tashkil etdi.




Doimiy aholi soni hisobini yuritishda, hisobot yili boshidagi aholi soniga hisobot davrida tug'ilganlar va ko'chib kelganlar soni qo'shilib, o'lganlar va ko'chib ketganlar soni ayirib tashlanadi.



Doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2021-yil 1- iyul holatiga ko'ra)




Doimiy aholi sonining hududlar bo'yicha taqsimlanishi



Ming kishi




Doimiy aholi sonining o'sish sur'ati
(2021-yil 1-iyul holatiga ko'ra, o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da)



Viloyat hududlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2021-yil 1-iyul holatiga ko'ra, hududlarning viloyat jami aholisi sonidagi ulushi bo'yicha eng ko'p ko'rsatkich G'ijduvon tumani **15,8** % ni, keyingi o'rnlarda Buxoro shahri **14,4** % ni, Shofirkon tumani **9,2** % ni va Jondor tumani **9,1** % ni tashkil etgan.




Doimiy aholi sonining hududlar kesimida taqsimlanishi
(2021-yil 1-iyul holatiga ko'ra, viloyat jami aholisiga nisbatan, % da)




2021-yil 1- iyul holatiga ko'ra, viloyat doimiy aholisi sonining **28,9 %** i mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, **59,3 %** i mehnatga layoqatli yoshdagilar va **11,3 %** i mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasiga to'g'ri kelmoqda.




Doimiy aholi sonining asosiy yosh guruhlari bo'yicha taqsimlanishi (jami aholi soniga nisbatan, % da)




**Tug'ilganlar soni
(yanvar – iyun)**

2021 yil yanvar – iyun oylarida


**Tug'ilganlar soni,
ming kishi**

**Tug'ilish koeffitsiyenti,
1000 aholiga nisbatan, promille**


2021-yilda **17,9** mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti **18,4** promilleni tashkil etdi hamda 2020-yilga nisbatan **0,4** promillega oshganligi kuzatildi (*2020-yilda 18,0 promilleni tashkil etgan*).



Oylar kesimida tug'ilganlar soni




Tug'ilganlar soni oylar bo'yicha tahlil etilganda eng ko'p qayd etilgan tug'ilganlar soni 2020-yilda iyun oyida (**3 593** kishi) kuzatilgan bo'lsa, 2021-yilda ham iyun oyida (**3 826** kishi) kuzatildi.

Aksincha, eng kam qayd etilgan tug'ilganlar soni 2020- yilda aprel oyida (**2 471** kishi) kuzatilgan bo'lsa, 2021- yilda ham aprel oyida (**2 870** kishi) kuzatildi.

Ma'lumot uchun: tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urish, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyor qisqarishi) biri mavjud bo'lsa bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.




Vafot etganlar soni (yanvar – iyun)



2021-yilning yanvar - iyun oylarida **4,2** mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga o'lim koeffitsiyenti **4,4** promilleni tashkil etgan hamda 2020-yilga nisbatan **0,3** promillega oshganligi kuzatildi (2020-yilning yanvar - iyun oylarida **4,1** promille bo'lган).



Oylar kesimida vafot etganlar soni




2021- yilning yanvar - iyun oylarida vafot etganlar hududlar bo'yicha tahlil etilganda har 1000 aholiga nisbatan eng ko'p o'lim holati Kogon shahrida (**5,5** promille) qayd etilgan.


Aksincha, har 1000 aholiga nisbatan eng kam o'lim holati Qorovulbozor tumanida (**1,3** promille) qayd etilganligi kuzatildi.



Vafot etganlar soni va o'lim koeffitsiyenti (2021 yil yanvar – iyun)




2021-yilning yanvar - iyun oylarida qayd etilgan o'lim holatining **63,2 %** i - qon aylanish tizimi kasalliklaridan, **10,5 %** i – o'simtalardan, **4,8 %** i - baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, **4,4 %** i - ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, **5,2 %** i - nafas olish a'zolari kasalliklaridan, **11,3 %** i - yuqumli va parazitar kasalliklardan hamda **11,3 %** i - boshqa kasalliklardan vafot etgan.





Go'daklar o'lim sababi bo'yicha taqsimlanishi (2021 yil yanvar – iyun)

Ro'yxatga olingan bir yoshgacha vafot etgan bolalarning **59,4** % i - perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, **12,1** % i - nafas olish a'zolari kasalliklaridan, **15,1** % i – tug'ma anomaliyalardan, **4,2** % i -yuqumli va parazitar kasalliklardan, **3,0** % i - baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan va **6,2** % i - boshqa kasalliklardan





Tuzilgan nikohlar soni (2021 yil yanvar – iyun, ming birlik)




Hududlar kesimida nikoh tuzganlik koeffitsiyenti (2021 yil yanvar – iyun, 1000 aholiga nisbatan)




Eng yuqori nikoh koeffitsiyenti (promille), Buxoro shahri (9,1), Shofirkon (8,4), Qorako'l va Buxoro (8,2) tumanlarida kuzatildi.

Eng kam nikoh tuzish koeffitsiyenti (promille) Qorovulbozor (6,5), Romitan (6,8), Vobkent va Peshku (7,2) tumanlarida kuzatildi.





Nikohdan ajrashganlar soni (2021 yil yanvar – iyun, ming birlik)




Hududlar kesimida nikohdan ajralish koeffitsiyenti (2021 yil yanvar – iyun, 1000 aholiga nisbatan)




Eng yuqori nikohdan ajrashganlar koeffitsiyenti (promille) Buxoro (2,1), Kogon (1,8) shaharlarida, Kogon (1,2), Buxoro (1,1) tumanlarida kuzatildi.

Eng kam nikohdan ajrashganlar koeffitsiyenti (promille) Olot va Peshku (0,6), Qorako'l, Jondor va Romitan (0,7), G'ijduvon (0,8) tumahlarida kuzatildi.





Aholi migratsiyasi (2021 yil yanvar – iyun, ming kishi)



Migratsiya saldosi G'ijduvon (-0,7 ming kishi), Qorako'l (-0,5 ming kishi), Shofirkon (-0,4 ming kishi) va Buxoro shahrida (-0,4 ming kishi) tumanlarida ko'chib ketganlar soni ko'chib kelganlar soniga nisbatan sezilarli darajada balandligi kuzatildi.

Migratsiya saldosining ijobiy darajasi Buxoro tumaniida (0,3 ming kishi) kuzatildi.



Demografiya va mehnat statistikasi bo'limi

Tel: (71) 230-83-16, (65) 223-83-37